

O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI

*Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li**TerDPI o‘qituvchisi**Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi**TerDPI talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining davlat tili bo‘lishiga qadar, ilk o‘rta asrlarda va sho‘rolar davridagi nufuzi haqida so‘z yuritiladi. Ilk o‘rta asrlarda yaratilgan yozma adabiyot namunalari “Hikmat”, “Devoni lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig” asarlari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ilk o‘rta asrlar, sho‘rolar davri, milliy til, og‘zaki adabiyot.

Til ijtimoiylikka ega bo‘lib, jamiyat bilan birga boyib, rivojlanib, takomillashib boradi. Hech bir til o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, shakllanib qolmagan. Bunda tilning o‘tmish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tilda bo‘layotgan o‘zgarishlar keskin yoki to‘satdan sodir bo‘lmaydi, bir so‘z bilan aytganda tilda inqilob bo‘lmaydi.

Til sekinlik bilan, jamiyatdagi voqea-hodisalar, sodir bo‘layotgan o‘sislar natijasida rivojlanadi. Milliy til o‘zida milliylikni ya‘ni xalq turmush-tarzini, o‘ziga xos xususiyatlarini, urf-odat va an‘analarini mujassamlashtiradi.

O‘zbek tilining hozirgi kungacha bo‘lgan tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, o‘zbek tiliga o‘zga tilli xalqalarning nazar-pisand qilmaganligi, tilimizni obro‘sizlantirishga, uni yo‘qotishga uringanlar bo‘lganligi bilan bir qatorda tilimizga berilgan e‘tiborni ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalqi O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo‘lib, eroniy xalqlar va turkiy qabilalar aralashuvidan tarkib topgan.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda Xorazm, Xioniylar, Kidariylar, Eftallar, Turk xoqonligi, keyinchalik Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur hukmronlik qilgan davlatlar faoliyat ko‘rsatgan. Bu davlatlar faoliyati davomida mazkur hududlar aholisining ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy, iqtisodiy hayotiga ham ta‘sir o‘tkazgan. Aynan Eftallar hukmronligi davrida aholi sug‘d va turkiy tilda gaplashishgan. Xalqaro tili esa sug‘d bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda, asosan, VI-VII asrlarda yurtimizda yurtimizda sug‘d, xorazm, toxar, ko‘kturk yozuvlari mavjud bo‘lib, ular charm, yog‘och, sopolga va juda kam hollarda qog‘ozga yozilgan.

X-XII asrlarda turkiy xalqlarning og‘zaki adabiyoti bilan bir qatorda yozma adabiyoti ham shakllanib bordi. O‘sha davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”, Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”i eng nodir asarlardan hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonini yozib uni qoraxoniylar hukmdorlaridan Tavg‘ach Bug‘roxonga taqdim etadi. Bu asarda inson, uning hayoti va vazifalari aks etgan va bundan tashqari “Qutadg‘u bilig”da axloq, odob, sadoqat, sevgi timsollari munosib o‘rin egallagan.

Mahmud Koshg‘ariy “turkiy xalqlar yashaydigan o‘lkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug‘lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o‘rinlari, urf-odatlarini, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o‘rganadi. So‘ng Bag‘dodga borib, 1072-yilda dunyoga mashhur asari “Devonu lug‘otit-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”)ni yozib tugatdi”.¹ Mahmud Koshg‘ariy bu asari bilan turkiy xalqlarning tilini o‘rganishimiz va turkiy tilning mavqeyi qay darajada bo‘lganini bilishimiz mumkin.

XIV-XV asrlarda Temuriylar, Ashtarxoniylar, Shayboniylar, Mang‘itlar hukmronligi davrida ham tilimizga e‘tibor qaratildi. Madrasa, xonaqohlar bino etilib, ularda turli fanlardan saboq berildi. Bu davrda Alisher Navoiy o‘zbek tilini yangi bir pog‘onaga ko‘tardi. Navoiy 30 dan ziyod yirik asarlar yozdi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning yaqinligi qardosh xalqlar do‘stligining yorqin namunasi bo‘ldi. O‘sha davrlarda yashagan olim-u adiblar, yozuvchilar barchasi o‘zbek tili boyishiga, uning ravnaq topib, jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Biroq sho‘rolar davrida tilimizga bo‘lgan e‘tiborsizlik, hurmatsizlik paydo bo‘la boshladi. Xalqimiz foydalanib kelgan arab alifbosi yo‘qotilib, lotin alifbosi kiritildi. Oradan yana vaqt o‘tgach rus alifbosiga o‘ta boshlandi. Milliy tillar yo‘qotilib, ulardan asta-sekin foydalanmaslikka da‘vat etildi. Milliy til vakillari, har xil millat vakillarining yaqinlashib borishi, o‘zaro qo‘shilib ketilishi kutilayotgan edi. Bunday zug‘um ostida yashayotgan xalqlar o‘zining milliy nutq madaniyatini ham yo‘qota bordi. Xalq boshiga kelgan hukumat o‘zining tilidan foydalanishni va xalq orasiga kirib borishini targ‘ib etdi. Avvalo, o‘zbek milliy ziyolilari, partiya a‘zolari, organ vakillari milliy tildan uzoqlashishdi var us tilida gapiradigan bo‘ldi. “O‘zbek tili XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarning oxiriga qadar rus tilining qattiq ta‘siri ostida qoldi...”

Aslida, o‘zbek tiliga rus tilining ta‘siri 1865-yildan, ruslar Turkistonni istilo qila boshlashi bilanoq boshlangan. O‘sha davrlarda yashab ijod etgan yirik o‘zbek mutafakkiri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat asarlaridagi gimnaziya, royal, vistavka, telegraf kabi ruscha shakldagi so‘zlarni eslash kifoya”.²

XX asrlarga o‘zbek tili ham rus tili, ham sovet internatsionalizmi tazyiqiga duchor bo‘ldi. “Negaki, rus tili haqida gapirish internatsionalizm, milliy xalqlar muammolari haqida gapirish esa millatchilik ko‘rinishi deb baholanar edi. Shuning uchun sho‘ro tazyiqi ostida bo‘lgan turkiy tillar tavsifida ham ularni rus tiliga zo‘rlab

1.A.Muxammadjonov.“O‘zbekiston tarixi”. 7-sinf darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017. 100-bet.

2.Abduvali Berdialiyev. “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi”. Toshkent. 95-bet.

yaqinlashtirish, rus tili qurilish qolipini o‘zbek tili hodisalari talqiniga zo‘rma-zo‘rakilik bilan ko‘chirish odat tusini oldi. Natijada o‘zbek tili grammatik va boshqa qoidalari ularning shu til sistemasidagi amaliy qonuniyatidan emas, balki rus tili grammatikasi sistemasidagi qoliplar orqali belgilab kelindi. Hatto grammatika (xususan, sintaksis) nomli baynalmilaldir, degan g‘ayriilmiy shiorlar ham ilgari surildi, grammatikaning talqini baynalmilallashtirildi”.³

1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so‘ng o‘zbek tilining obro‘si oshdi. Mamlakatimizda barcha hujjatlar, ish qog‘ozlari, darsliklar o‘zbek tilida yuritiladigan bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, qaysidir davrlarda o‘zbek tiliga e‘tibor qaratilgan, qaysidir davrda uning mavqeyi toptalgan bo‘lsa ham hozirgi kunda yurtimizda o‘zbek tilining inson, davlat, jamiyat oldida muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbek tili o‘zligimizni dunyoga tarannum qiluvchi, millatimiz sha‘ni, obro‘sini yuksaklarga ko‘taruvchi vositadir. Dunyoda “o‘zbek” degan millat bor ekan, uning “o‘zbek tili” ham u bilan bardavom yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Muxammadjonov.”O‘zbekiston tarixi”. 7-sinf darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017
2. Abduvali Berdialiyev. “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi”. Toshkent.
3. Z. Aliqulov. S. Boymirzayeva. “Sotsiolingvistika”. Samarqand-2009
4. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
5. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
6. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42)).

³ Z. Aliqulov. S. Boymirzayeva. “Sotsiolingvistika”. Samarqand-2009. 28-bet.